

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI

"BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDIT" KAFEDRASI

Ro'yxatga olindi:

No 307

2022 yil 29 08



STATISTIKA

FANI

SILLABUSI

| | | |
|--------------------|----------|---|
| Bilim sohasi: | 300000 | - Ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborot |
| Ta'lif sohasi: | 310000 | - Ijtimoiy va xulq atvorga mansub fanlar |
| Ta'lif yo'nalishi: | 60310100 | - Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) |

Qarshi – 2022 yil

Ushbu fan sillabusi 28.06.2022 yilda Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti tomonidan tasdiqlangan o'quv dasturi asosida tuzildi.

Tuzuvchi:

Turobov Sh.



-“Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasi katta o'qituvchisi

Taqrizchilar:

Yakubova Sh.

-QarDU “Turizm va marketing” kafedrasi mudiri, dotsent, iqtisodiyot fanlari nomzodi.

Egamberdiyeva S.

-“Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasi dotsenti, iqtisodiyot fanlari nomzodi.

Fan sillabusi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasining 2022 yil 24 08 dagi 1-son yig'ilishida hamda “Iqtisodiyot” fakulteti Uslubiy Komissiyasining 2022 yil 24 08 dagi 1-sonli yig'ilishida muhokama qilinib, tasdiqlangan.


Institut Uslubiy Kengashining 2022 yil 29 08 dagi 1-son yig'ilishi qarori bilan o'quv jarayonida foydalanishga tavsiya etilgan.

O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i:




Sh.R.Turdiyev

Fakultet uslubiy komissiyasi raisi:



A.B.Qurbanov

Kafedra mudiri:



A.Alikulov

“Statistika” fani sillabusi

| Fan (modul) kodi (STATIS6) | O’quv yili 2022-2023 | Semestr III | ECTS krediti 6 |
|---------------------------------------|---|-----------------------------------|--|
| Fan (modul) turi Majburiy | Ta’lim tilti o’zbek | | Haftalik dars soati 5 |
| Fanning nomi | Auditoriya mashg’ulotlari (soat) | Mustaqil ta’lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
| Statistika | 76 | 104 | 180 |

O’qituvchi haqida ma’lumot

| | | | |
|-------------------------------------|---------------------------------|----------------|--------------------|
| Kafedra nomi | Buxgalteriya hisobi va audit | | |
| O’qituvchi | F.I.Sh. | Telefon raqami | e-mail |
| Ma’ruzachi | Turobov Sherzod Alisherovich | +998914537757 | sh.turobov@mail.ru |
| Amaliy mashg’ulot | | | |
| Laboratoriya mashg’uloti | - | | |

I. Fanning mazmuni

Fanni o‘qitishdan maqsad – talabalarda bozor iqtisodiyoti sharoitida statistikaning nazariy, uslubiy va amaliy masalalarini har taraflama o’rgatish, bozor hodisalari o’rtasidagi sabab-oqibat bog’lanishlarini ochish uchun korrelyatsion-regression tahvilni qo’llay olish, statistik kuzatish natijasida olingan ma’lumotlarni kompyuter dasturlari yordamida yechish, olingan natija bo'yicha xulosa va takliflar qilish hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilishda yo’nalish profiliga mos bilim, ko’nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat.

Fanning vazifalari – talabalarda statistikaning predmeti va metodi, uning ahamiyati va roli haqida chuqur bilimga ega bo’lish, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlardagi sodir bo’ladigan hodisalar to’g’risidagi ilmiy va tajribaviy gipotezalarni statistik tekshirish, statistika amaliyotida qo’llaniladigan hisobot shakllarini to’ldirish to’g’risida tasavvurga ega bo’lishni ta’minlash va ushbu sohada vujudga kelishi mumkin bo’lgan amaliy muammolarni yechishda statistik usullar hamda zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalana olishni o’rgatishdan iborat.

II.Fan o'qitilishining natijalari (Shakllanadigan kompetentliklar)

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba

- statistik masalalarini yechish masalalar ustida statistik kuzatish tashkil etish;
- statistik jadval va grafiklarni tushunarli qilib tuzish;
- guruqlash turlari, statistik tasniflash va uning o'ziga xos xususiyatlarini talqin qilish haqida tasavvurga ega bo'lishi;
 - MHTning asosiy hisoblamalarini tuzish va ularning ko'rsatkichlarini aniqlash;
 - mutloq va nisbiy ko'rsatkichlarni bilish;
 - o'rtacha miqdorlar va variatsiya ko'rsatkichlarini o'rganish;
 - milliy boylik hajmi va uning indeksini hisoblash;
 - milliy daromadni taqsimlash;
 - mamlakatning xalqaro mehnat taqsimotida qatnashish darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlarini tahlil qilish;
 - davlat byudjeti ijrosini tahlil qilish;
 - milliy hisoblar tizimidagi aholi turmush darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlarni mohiyatini aniqlash bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak;
 - iqtisodiy hodisalar o'rtasida o'zaro boflanish uslubiyatini o'zlashtirish;
 - dinamika qatorlari va turlarini aniqlash;
 - bozor iqtisodiyoti sharoitida statistik ko'rsatkichlarni baholash, tahlil qilish va talqin etish;
 - statistika amaliyotida qo'llaniladigan iqtisodiy indekslarni hisoblash;
 - yalpi ichki mahsulot deflyatori va agregat indekslaridan foydalanish;
 - pul muomalasini ifodalaydigan statistik ko'rsatkichlar tizimining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash;
 - aholi turmush darajasini ifodalovchi ijtimoiy-iqtisodiy indekatorlarni tahlil qilish bo'yicha malakalariga ega bo'lishi kerak.

III.Ta'lim texnologiyalari va metodlari

- ma'ruzalar;
- interfaol keys-stadilar;
- seminarlar(mantiqiy fikrlash, tezkor savol- javoblar);
- guruhlarda ishlash;
- taqdimotlarni qilish;
- individual loyihalar;
- jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.

IV.Fan tarkibi. (Ma’ruza mashg’ulotlari)

| T/r | Mavzular | Qisqacha mazmuni | Soat |
|-----|---|---|------|
| 1. | Statistika fanining predmeti va uslubi. Statistik kuzatish uslubiyati. | <p>Statistikaning paydo bo’lish tarixi va rivojlanish bosqichlari. Statistika so’zi ko’p qirrali tushuncha sifatida va uni turli mazmunlarda ishlatalishi. Statistika - ilm-fan tarmog’i, amaliy faoliyat sohasi, raqamlarda ifodalangan ma’lumot (axborot), bilim yo’nalishi.</p> <p>Statistika fani predmeti va uning o’ziga xos xususiyatlari. Statistika fanining nazariy asoslari. Statistik tadqiqot uslubiyati va uning jihatlari. Tasviriy va induktiv statistika, ularning maqsad va vazifalari. Statistika fanining boshqa fanlar bilan o’zaro bog’liqligi.</p> <p>Statistik kuzatish mohiyati va ahamiyati. Statistik kuzatish dastur - uslubiy va tashkiliy masalalari. Kuzatish maqsadi va vazifalari. Kuzatish ob’ekti va birligi. Hisob birligi. Kuzatish dasturi. Statistik formulyar va yo’riqnomalar. Kuzatish joyi. Kuzatish kritik payti va muddati. Statistik kuzatish shakllari, turlari, usullari va ularning o’ziga xos xususiyatlari. Hisobot, maxsus tashkil etilgan kuzatishlar, ro’yxatlar.</p> <p>Hozirgi zamon O’zbekiston Respublikasi Davlat statistikasi va xalqaro statistika tashkilotlari. O’zbekiston Davlat statistika qo’mitasi, uning tuzilishi, funksiyalari va xuquqlari. Davlat statistika qo’mitasini mahalliy tashkilotlari, ularning tuzilishi va vazifalari.</p> | 2 |
| 2. | Statistik jamlash va guruhash. Statistik jadval va grafiklar. | <p>Statistik jamlashning mazmuni va uni masalalari. Jamlash tushunchasini tor va keng ma’nolarda talqin etish.</p> <p>Statistik guruhashning mohiyati va uni ijtimoiy-iqtisodiy hodisalarni tahlil qilishda ahamiyati. Guruhash turlari. Statistik to’plam tuzilishi va ijtimoiy-iqtisodiy hodisalar o’rtasidagi bog’lanishlarni urganishda gruhlash usulini qo’llash ahamiyati.</p> <p>Statistik ko’rsatkichlarni taqdim etishning asosiy usullari: matnda so’z bilan bayon qilish, jadval va grafiklar shaklida tasvirlash. Matnda taqdim etish nuqsonlari.</p> <p>Jadval - statistikaning asosiy so’z turkumi sifatida. Statistik jadval mohiyati va uni tarkibiy unsurlari. Jadval skeleti. Jadval egasi va kesimi. Jadval maketi. Jadval sarlavhasi. Statistik ko’rsatkichlarni grafiklarda tasvirlash ahamiyati va uni afzalliliklari.</p> | 2 |
| 3. | Statistik ko’rsatkichlar. O’rtacha miqdorlar. | <p>Statistik ko’rsatkichlarning mohiyati va ahamiyati. Statistik ko’rsatkichlarning ajralmas tarkibiy unsurlari (sifat va miqdor tomonlarning mavjudligi; zamon va makonga bog’liqligi).</p> <p>Mutlaq ko’rsatkichlar va ularni turlari. Mutlaq ko’rsatkichlarni ifodalash shakllari: natural, mehnat va qiymat ko’rsatkichlari.</p> <p>Nisbiy ko’rsatkichlar - statistik tahlil yo’lidagi birinchi qadam sifatida ekanligi. Dinamika va tuzilmaviy siljishlar o’rtasidagi bog’lanish va uning ahamiyati.</p> <p>O’rtacha miqdorlar mohiyati va ularni iqtisodiy tahlildagi ahamiyati. O’rtacha miqdor turlari va shakllari.</p> | 2 |

| | | | |
|----|---|--|---|
| | | <p>O'rtacha arifmetik miqdor mohiyati va uni qo'llash shart-sharoitlari. Oddiy va tortilgan o'rtacha arifmetik miqdorlar. O'rtacha arifmetik xossalari. O'rtacha arifmetikni "shartli moment" va "yig'indi" usullari yordamida hisoblash.</p> <p>O'rtacha garmonik miqdorning mohiyati va uni qo'llash shart-sharoitlari.</p> | |
| 4. | Variatsiya ko'rsatkichlari. | <p>Variatsiyaning mohiyati va uni statistik uraganish zarurligi. Varatsiya me'yirlari. Varatsion kenglik. O'rtacha mutlaq tafovut. Dispersiya va o'rtacha kvadratik tafovut. Taqsimot qatorlarida guruhlash oralig'i kattaligini aniqlash uchun o'rtacha kvadratik tafovutni qo'llanishi. Kvartil tavofut. Ossillyatsiya koeffitsiyenti. Variatsiya koeffitsiyenti. Notekislik me'yori va uni to'qimachilik sanoatida qo'llanishi. Assimmetriya va eksses ko'rsatkichlari.</p> | 2 |
| 5. | Tanlama kuzatish. | <p>Tanlama kuzatish mohiyati, uni qo'llash sabablari va afzallikkleri. Tanlama kuzatishni statistika amaliyotida qo'llash mumkinligining nazari asoslari.</p> <p>Tanlama kuzatish reprezentativlik xatosi. O'rtacha kvadratik va chegaraviy xatolar. Tanlama kuzatish xatosini baholashda normal taqsimotning ahamiyati. Tanlama kuzatish natijalarini bosh to'plamga tarqatish usullari.</p> <p>Reprezentativ tanlama kuzatishni tashkil etish yo'llari: tasodify tanlama kuzatish; mexanik tanlama kuzatish; tipik tanlama kuzatish; seriyali tanlama kuzatish; kombinatsion tanlama kuzatish.</p> | 2 |
| 6. | Regression va korrelyatsion tahlil | <p>Ijtimoiy-iqtisodiy hodisalar o'rtasidagi o'zaro bog'lanishlarni uraganish ahamiyati va ularni statistik tadqiq qilish zarurligi. O'zaro bog'lanishlar turlari: funksional va korrelyatsion bog'lanishlar, ularning o'ziga xos xususiyatlari. Korrelyatsion-regression tahlil - hodisalar o'rtasidagi sabab-oqibat bog'lanishlarni statistik uraganish usuli, uning asosiy vazifalari va qo'llash shart-sharoitlari.</p> <p>Juft chiziqli korrelyatsiya. Chiziqli korrelyatsiya koeffitsiyentini hisoblash formulalari. Chiziqli korrelyatsiya koeffitsiyenti va regressiya tenglamasi parametrlarining ishonchliligini normal va Styudent taqsimotlari yordamida baholash yo'llari.</p> | 2 |
| 7. | Dinamikani statistik o'rGANISH usullari. | <p>Ijtimoiy-iqtisodiy hodisalar dinamikasini uraganish ahamiyati va uni statistik tadqiq qilish zarurligi.</p> <p>Dinamika qatorlari mohiyati va turlari. Dinamika qatorlarini tuzish qoidalari. Dinamika qatorlarini tahlil qilish ko'rsatkichlari. Dinamika qatorlari o'rtacha ko'rsatkichlarini hisoblashning o'ziga xos xususiyatlari.</p> <p>Dinamika qatorlarida mavsumiy tebranishlarni statistik o'rGANISH usullari. Mavsumiylik indeksi. Mavsumiy tebranishli dinamika qatorlari trend tenglamasini tuzish masalasi.</p> | 2 |
| 8. | Iqtisodiy indekslar. | <p>Iqtisodiy indekslarning mohiyati va ahmiyati. Iqtisodiy indekslarning tasniflari. Individual indekslar - nisbiy miqdorlar ekanligi.</p> <p>Umumiyl indekslarni sintetik va analistik konsepsiya (nazariya)lari, ularning o'ziga xos xususiyatlari. Agregat</p> | 2 |

| | | | |
|-----|--|--|---|
| | | <p>indekslar va ularni tuzish tartibi. Laspeyres va Paashe agregat indekslari hamda ularning xossalari. O'rtacha arifmetik va o'rtacha garmonik indekslar hamda ularni qo'llash shart-sharoitlari.</p> <p>Indekslarni test nazariyasi. Fisher ideal indeksi va uning xos jihatlari.</p> | |
| 9 | O'zbekiston milliy hisoblar tizimi – iqtisodiy statistikaning uslubiy negizi. | <p>Milliy hisoblar tizimi haqida tushuncha. Iqtisodiy rivojlanish darajasini va dinamikasini xarakterlaydigan o'zaro bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlar tizimi. Milliy hisoblar tizimi hisoblamalari tasnifi va ularni tuzish tamoyillari.</p> <p>Daromadlarni hosil bo'lish hisoblamasining ko'rsatkichlari va uning o'ziga xos xususiyatlari. Yalpi ichki mahsulot – milliy hisoblar tizimining asosiy ko'rsatkichi. Yalpi milliy daromadni taqsimlash va qayta taqsimlash.</p> | 2 |
| 10. | Aholi va mehnat bozori statistikasi. | <p>Aholi soni va tarkibini statistik o'rganish. Aholini jinsi, millati, oilaviy holati, ma'lumotli darajasi va boshqa belgilar bo'yicha o'rganish. Aholining tabiiy va mexanik harakati statistikasi. Aholining tabiiy va mexanik harakati haqida tushuncha. Aholining tabiiy harakatini ifodalovchi absolyut va nisbiy ko'rsatkichlar: tug'ilishi, vafot etishi, tabiiy o'sishi. Aholi migratsiyasining absolyut va nisbiy ko'rsatkichlari. Nikohdan o'tish va undan o'chish ko'rsatkichlari.</p> <p>Iqtisodiy faol aholi tushunchasi. Uning soni va tarkibi. Bandililik va ishizlik statistikasi. Iqtisodiy nofaol aholi tushunchasi. Uning soni va tarkibi. Mehnat resurslari statistikasi. Mehnat resurslari sonini hisoblash usullari. Mehnat resurslari balansi. Uning sxemasi va ko'rsatkichlar tizimi, uni tahlil qilishning asosiy yo'naliishlari. Korxona va tashkilotlarning xodimlarini asosiy va asosiy bo'lмагan faoliyatları bo'yicha taqsimlanishi. Sanoat, qishloq xo'jaligi va boshqa tarmoqlardagi asosiy xodimlar kategoriyalari. Iqtisodiyot tarmoqlarida band bo'lgan xodimlar soni. Ro'yxatdagi va ishga kelgan xodimlar soni. O'rtacha ro'yxatdagi, ishga kelgan va amalda ishlagan xodimlar sonini hisoblash usullari. Ishchi kuchi harakati statistikasi. Ishchi kuchi soni balansi. Ishga qabul qilish va ishdan bo'shatishning asosiy va nisbiy ko'rsatkichlari. Ish kuchining qo'nimsizligi va doimiyligi. Ish vaqt fondlarining tarkibi. Ish davri va ish kunining o'rtacha uzunligi va ulardan foydalanish ko'rsatkichlari. Umumiy ishlangan ish vaqt hajmiga ta'sir etuvchi omillar.</p> | 2 |
| 11. | Yalpi ichki mahsulot statistikasi. | <p>Yalpi ichki mahsulot hajmini hisoblash usullari. Asosiy kapitalni yalpi jamg'arish. Material aylanma mablag'lar zahiralarining ortishi.</p> <p>Tovar va xizmatlarning sof eksporti. Nominal va real yalpi ichki mahsulot. Ayrim tarmoqlar mahsulotlari hajmini hisoblashning o'ziga xos xususiyatlari.</p> | 2 |
| 12 | Milliy daromad va milliy hisoblar tizimidagi boshqa daromad ko'rsatkichlari. | <p>Dj Xinksning daromad haqidagi ta'limoti. Yangi MHTda Dj Xinksning ta'limotiga kiritilgan aniqliklar. Nominal va real daromad. Daromad haqidagi ta'sir etuvchi ekstensiv va intensiv omillar.</p> <p>Milliy daromadni taqsimlash, qayta taqsimlash va oxirgi</p> | 2 |

| | | | |
|----------------------------------|---|---|-----------|
| | | foydalaniш statistikasi. Yalpi milliy daromad, sof milliy mavjud daromad, yalpi milliy jamg‘arish, sof milliy jamg‘arish ko‘rsatkichlari statistikasi. | |
| 13. | Milliy boylik va tashqi iqtisodiy faoliyat statistikasi. | <p>Tashqi iqtisodiy aloqalar statistikasining o‘rganish obyekti va ko‘rsatkichlar tizimi. Eksport va importning ta’rifi. Eksport va importni hisoblashning umumiy va maxsus tizimi. Tashqi iqtisodiy faoliyatni statistik o‘rganish usullari.</p> <p>To‘lov balansi tizimning asosiy tamoyillari. Xalqaro investitsion siyosat, investitsiya muhitini ifodalovchi ko‘rsatkichlar. Milliy hisoblar tizimi va to‘lov balansi orasidagi bog‘lanish.</p> <p>Milliy boylik va milliy mulk haqida tushuncha va bu sohadagi statistikaning vazifalari. Milliy hisoblar tizimida iqtisodiy aktivlar tushunchasi va tarkibi.</p> <p>Foydali qazilma boyliklari, suv va gidroenergik resurslarni statistik o‘rganish. Milliy boylik elementlarini joriy va o‘zarmas baholarda hisoblash va ular dinamikasini o‘rganish.</p> | 2 |
| 14. | Moliya-kredit tizimi statistikasi. | <p>Moliya statistikasining ko‘rsatkichlar tizimi. Davlat moliya statistikasining asosiy ko‘rsatkichlari. Bank faoliyati statistikasi.</p> <p>Pul muomalasi statistikasi. Qimmatli qog‘ozlar statistikasining asosiy ko‘rsatkichlari. Sug‘urta statistikasi.</p> | 2 |
| 15. | Aholi turmush darajasi statistikasi. | Aholi turmush darajasini ifodalovchi ijtimoiy-iqtisodiy indikatorlar tizimi. Uy xo‘jaliklari budgetini statistik kuzatish. Aholining sotib olish qobiliyati, minimal yashash darajasi va kambag‘allik chegarasi. Aholi turmush darajasini ifodalovchi umumiy ko‘rsatkichlar. Ijtimoiy infratuzilma statistikasining ko‘rsatkichlari. | 2 |
| Jami III semestr bo‘yicha | | | 30 |

**Amaliy mashg‘ulotlar bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar
(fan bo‘yicha laboratoriya ishlari va kurs ishlari mo’ljallanmagan)**

| № | Mavzular | Soati |
|----------|---|--------------|
| 1 | Statistika fanining predmeti va uslubi | 2 |
| 2 | Statistik kuzatish uslubiyati | 2 |
| 3 | Statistik jamlash va guruhlash | 2 |
| 4 | Statistik jadval va grafiklar | 2 |
| 5 | Statistik ko‘rsatkichlar | 2 |
| 6 | O‘rtacha miqdorlar | 2 |
| 7 | Variatsiya ko‘rsatkichlari | 2 |
| 8 | Tanlanma kuzatish | 2 |
| 9 | Regression va korrelyatsion tahlil | 2 |
| 10 | Dinamikani statistik o‘rganish usullari | 2 |
| 11 | Iqtisodiy indekslar | 2 |
| 12 | O‘zbekiston milliy hisoblar tizimi – iqtisodiy statistikaning uslubiy negizi. | 4 |
| 13 | Aholi statistikasi | 2 |
| 14 | Mehnat bozori statistikasi | 4 |
| 15 | Yalpi ichki mahsulot statistikasi | 2 |
| 16 | Milliy daromad va milliy hisoblar tizimidagi boshqa daromad ko‘rsatkichlari | 2 |
| 17 | Milliy boylik statistikasi | 2 |

| | | |
|----|--|----------------|
| 18 | Tashqi iqtisodiy faoliyat statistikasi | 2 |
| 19 | Moliya-kredit tizimi statistikasi | 2 |
| 20 | Aholi turmush darajasi statistikasi | 4 |
| | Jami | 46 soat |

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akadem guruhga bir o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi lozim. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda talabalar asosiy ma'ruza mavzulari bo'yicha olgan bilim va ko'nikmalarini amaliy masalalar echish orqali yanada boyitadilar. Shuningdek, darslik va o'quv qo'llanmalar asosida talabalar bilimlarini mustaxkamlashga erishish, tarqatma materiallardan faydalanish, ilmiy maqolalar va tezislarni chop etish orqali talabalar bilimini oshirish, masalalar echish, mavzular bo'yicha ko'rgazmali qurollar tayyorlash va boshqalar tavsiya etiladi

Laboratoriya mashg'ulotlari.

Laboratoriya mashg'ulotlari rejalashtirilmagan.

V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlari

Talaba mustaqil ishining asosiy maqsadi – o'qituvchining rahbarligi va nazoratida muayyan o'quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish.

Talaba mustaqilishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish; - tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha fanlar bilimlari yoki mavzulari ustida ishlash; - yangi texnikalarni, apparaturalarni, jarayonlar va texnologiyalarni o'rganish;
- talabaning o'quv-ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari va mavzularni chuqur o'rganish;
- faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari;
- masofaviy (distansion) ta'lim;
- referatlar yozishni standart talablarga mos ravishda va hisoblash texnikasidan foydalanib mustaqil bajarishni o'z ichiga oladi.
- ilmiy maqola, anjumanga ma'ruza tayyorlash va h.k..

Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning mavzulari:

1. Statistika fanining predmeti va uslubi
2. Statistik kuzatish uslubiyati
3. Statistik jamlash va guruhlash
4. Statistik jadval va grafiklar
5. Statistik ko'rsatkichlar
6. O'rtacha miqdorlar
7. Variatsiya ko'rsatkichlari
8. Tanlanma kuzatish
9. Regression va korrelyatsion tahlil
10. Dinamikani statistik o'rganish usullari
11. Iqtisodiy indekslar
12. Statistika faniga kirish
13. Statistik ma'lumotlarni to'plash nazariyasi va amaliyoti
14. Statistik jamlash va guruhlash

15. Statistik ma'lumotlarni jadval va grafiklarda tasvirlash
16. Tasviriy statistika ko'rsatkichlari
17. Statistikada variatsiyani baholash usullari va dispersion tahlil asoslari
18. Dispersiya. Dispersiyalar turlari
19. Statistik tadqiqotlarda tanlama kuzatishning qo'llanilishi
20. Tanlab kuzatish xatosi, tanlanma to'plam zaruriy miqdorini aniqlash va tanlab kuzatish natijalarini tarqatish yo'llari
21. O'zaro bog'lanishlarni statistik o'rganish
22. O'zaro bog'lanishlar zichligini statistik o'rganish
23. Dinamika qatorlarida prognozlash
24. Statistika amaliyotida iqtisodiy indekslarini qo'llash yo'nalishlari
25. Aholi statistikasi
26. Aholi harakatining statistik ko'rsatkichlari
27. Mehnat bozori statistikasi
28. Mehnat resurslari balansi
29. Milliy hisoblar tizimi va makroiqtisodiy ko'rsatkichlar tizimi
30. Yalpi ichki mahsulot hajmini hisoblash usullari
31. Milliy daromad statistikasi
32. Milliy boylik statistikasi
33. Asosiy va aylanma kapital statistikasi
34. Moliya bozori statistikasi
35. Pul muomalasi va kredit statistikasi
36. Sug'urta bozorini statistik o'rganish
37. Tashqi iqtisodiy faoliyat statistikasi
38. To'lov balansi
39. Aholi turmush darajasi statistikasi
40. Aholi pul daromadlari va xarajatlari balansi

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan loyiha ishi, esse, tezis yoki ilmiy maqola yozish, referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

VI. Talabalar bilimini baholash mezonlari va kreditlarni olish uchun talablar

Fanga oid nazariy materiallar ma'ruza mashg'ulotlarini ma'ruzalarda ishtiroy etish va kredit-modul platformasi orqali ma'ruzalarni mustahkamlash hamda belgilangan test savollariga javob berish orqali amalgalash oshiriladi.

Amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari bo'yicha amaliy ko'nikmalar hosil qilish va o'zlashtirish mashg'ulotlarga to'liq ishtiroy etish va modul platformasi orqali topshiriqlarni bajarish natijasida nazorat qilinadi.

Mustaqil ta'lim mavzulari modul platformasi orqali berilgan mavzular bo'yicha topshiriqlarni bajarish (test, referat va boshqa usullarda) bajariladi.

Fan bo'yicha talabalar test usulida oraliq nazorat va og'zaki (yoki test) usulida yakuniy nazorat topshiradilar.

Talabalar bilimi O'zbekiston Respublikasi OO'MTVning 2018 yil 9 avgustdagi 9-2018-sodan buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risidagi Nizom" asosida baholanadi.

Talabalarning bilimi quyidagi mezonlar asosida:

- talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — 5 (a'lo) baho;

- talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — 4 (yaxshi) baho;

- talaba olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — 3 (qoniqarli) baho;

- talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda — 2 (qoniqarsiz) baho bilan baholanadi.

Yakuniy nazorat turini o'tkazish va mazkur nazorat turi bo'yicha talabaning bilimini baholash o'quv mashg'ulotlarini olib bormagan professor-o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi.

Fan dasturida berilgan baholash mezonlari asosida fanni o'zlashtirgan talabalarga tegishli ta'lim yo'naliishi (magistratura mutaxassisligi) o'quv rejasida ushbu fanga ko'rsatilgan kredit beriladi.

VII. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari

Asosiy adabiyotlar

1. James T. Mcclave, Terry Sincich. Statistics. -12th ed. 2013. -814 p.
2. Shodiyev X. va Xabibullayev I. Statistika: darslik. –T.: “Iqtisod-moliya”, 2019. -454 b.
3. Soatov N.M, Nabihev X, A.H Ayubjonov. Amaliy statistika: darslik. –T.:Iqtisodiyot. 2020.-298 b.
4. Soatov N. Statistika. Darslik. –T.: Abu Ali Ibn Sino, 2003. -743 bet.

Qo'shimch adabiyotlar:

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisiga Murojaatnomasi. // “Xalq so'zi” gazetasi, 2020 yil 25 yanvar, №19 (7521).
6. “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni.
7. Mirziyoyev SH.M. “Buyuk kelajagimizni mard va olujanob xalqimiz bilan birga quramiz”. Toshkent. O'zbekiston NMIU. 2017. -488 b.
8. Mirziyoyev SH.M. “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi”. Toshkent. O'zbekiston NMIU. 2017. -48 b.
9. Ayubjonov A.H., Mamatqulov B.X., Sayfullayev S.N. “Statistika fanidan amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish uchun o'quv qo'llanma”. –T.: TDIU, 2016. -180 bet.
- 10.Qoraboyev A., Rashitova N., Go'yipnazarov B. Milliy hisoblar tizimi: -T.: “Iqtisod-Moliya”, 2015. 426 b.
- 11.Елисеева И.И. Статистика: учебник. –М.: Юрайт, 2012. -559 с.

Axborot manbalari:

12. www.stat.uz – O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining rasmiy sayti.
13. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi hukumat portalı.
14. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.

